

## SUTSID – GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXSDAGI SALBIY IJTIMOIY PSIXOLOGIK HOLAT SIFATIDA

**Annotatsiya.** Sutsid-o'z joniga qasd qilish holati psixologiya, pedagogika, sotsioloogiya, tibbiyat va boshqa qator sohalarning o'rganish ob'yektlaridan biri hisoblanadi. XXI-asrning o'tgan davri mobaynida ushbu salbiy psixologik holat inson bilan birga yanada rivojlanib bormoqda. Tarixiy ma'lumotlar ushbu salbiy holatning yuzaga kelishi va psixologik sabablarini yoritishga va bu orqali kishilarning hayoti va sog'ligiga zarar yetkazmasliklari, aksincha berilgan umrni g'animat bilish va uni namunali tarzda yashashga targ'ib qilsada, lekin ushbu salbiy holat tugagan emas. Maqaola shu kabi jarayonlarning, turli statistik ma'lumotlar, ilmiy tahlillar va tadqiqotchilarning fikrlari va shaxsiy mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** suitsid, hayot, inson, rivojlanish, shaxs, stress, affekt, buzilish, o'smir, xarakiri, xulq, deviant, salbiy ta'sir, tashqi muhit.

## САМОУБИЙСТВО – КАК НЕГАТИВНОЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЛИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** Самоубийство является одним из объектов изучения психологии, педагогики, социологии, медицины и ряда других направлений. На протяжении последнего десятилетия XXI века это негативное психологическое состояние продолжало развиваться вместе с человечеством. Хотя исторические данные проливают свет на возникновение и психологические причины этой негативной ситуации и призывают людей не наносить вред своей жизни и здоровью, а ценить данную им жизнь и прожить ее достойно, эта негативная ситуация не закончилась. В статье описываются такие процессы, приводятся различные статистические данные, научные анализы, а также мнения и личные наблюдения исследователей.

**Ключевые слова:** самоубийство, жизнь, человек, развитие, личность, стресс, аффект, расстройство, подросток, характеристики, поведение, девиант, негативное воздействие, внешняя среда.

## SUICIDE – AS A NEGATIVE SOCIAL PSYCHOLOGICAL STATE OF THE PERSON IN THE PROCESS OF GLOBALISATION


**Annotation.** Suicide is one of the objects of study in psychology, pedagogy, sociology, medicine and a number of other fields. Over the past period of the 21st century, this negative psychological state has been developing along with man. Although historical data shed light on the emergence and psychological causes of this negative state and thereby encourage people not to harm their lives and health, but rather to appreciate the life they have been given and live it in an exemplary manner, this negative state has not ended. The article describes such processes, various statistical data, scientific analyses and the opinions and personal reflections of researchers.

**Keywords:** suicide, life, man, development, personality, stress, affect, disorder, teenager, charakiri, behavior, deviant, negative influence, external environment.

**Kirish:** Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab


ularga oqilona yechim topish va natijalarini to‘g‘ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jahan Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ning 2022 yil ma’lumotlariga ko‘ra Avstriyada 100 ming kishi aholisiga o‘z joniga qasd qilish - 24, Kanadada - 15, Daniyada - 18, Finlyandiyada – 28,4, Ispaniyada – 8,7 nafarni tashkil etadi. Ko‘pgina davlatlarda millionlab insonlarning o‘limiga sababchi bo‘lgan suitsid va uni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganish va bartaraf qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

1-rasm



Jahon miqyosda shaxslarda suitsid namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik sabablarini aniqlash va uni baholash o‘ta ilmiy ahamiyat kasb etib, psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, suitsidial xulq-atvorni bartaraf etishga qaratilgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etish, jamiyat hayotida yoshlar faolligini oshirish va ularning kasbiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. 2019 yil Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (APA) ning navbatdagi ilmiy –amaliy konferensiyasida deviant xulq va yoshlar mavzusida diqqatga sazovor ma’ruza taqdim etilgan. Ma’ruzachi M.J.Sigalning fikricha, iqtisodiy rivojlanishi sust bo‘lgan va ijtimoiy islohotlar keng qamrovli kuchga ega bo‘lmagan jamiyatda, yoshlar bilan bog‘liq huquqbazarliklar ko‘p sodir bo‘ladi. Chunki, bunday jamiyatlarda qonuniylik va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik o‘rtasidagi chegaralar juda kichikdir.

2-rasm



**Adabiyotlar tahlili:** Bugungi kunda kishilarda suitsidal holatlarni o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliv ta'lif muassasalari, jumladan, Stanford University, University of California, Purdue University, Iowa State University, University of Michigan (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Leiden University (Niderlandiya), Vuppertal universiteti (Germaniya), University of Haifa (Isroil), Jiangsu University (Xitoy), The University of Queensland (Avstraliya), A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogik universiteti, V.I.Vernadskiy nomidagi Tavr milliy universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Rossiya fanlar akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetlarida ta'lif tizimi va ijtimoiy institutlarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bugun kishilarda suitsidal holatlarni o'rganish dunyo mamlakatlaridagi ko'pgina ilmiy markazlar va oliv o'quv yurtlarining tegishli bo'linmalarida olib borilayotgan tadqiqotlardagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Mazkur yo'nalishga psixolog olimlaridan A.Bandura, G.Bekker, V.Boysex, Y.Vrono, E.Erikson, E.Dyurkgeym, Z.Freyd, S.Linga, Ch.Lomborzo, K.Yung, E.Krechmer, A.G.Ambrumova, Y.L.Arzumanov, S.A.Belicheva, A.V. Boeva, Y.M.Asadov, D.Abdujabborova, G'.B.Shoumarov, U.D.Qodirov, Z.S.Elov, Z.R.Ibodullaev, R.S. Samarov, K.B.Qodirov, B.M.Umarov, E.J.Nurimbetova va boshqalarning tadqiqotlarida shaxs, xulq, deviant xulq, suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin aynan deviant xulq-atvorli o'smirlarda suitsidal holatlarni ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan.

**Mavzuning ilmiy tahlillari:** Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab har yili 1 mln odam suitsid orqali hayotdan ko'z yumadi (*Jahon sog'liqni Saqlash Tashkilotining keyingi ma'lumotlariga ko'ra*). Bu ko'rsatkich 100 000 aholiga o'rtacha 16 kishini tashkil qiladi. Dunyo miqiyosida suitsid bo'yicha eng oldinda borayotgan davlatlardan Rossiya (26,5), Litva (25,7) va Qozog'iston (22,8). Janubiy Koreya (20,2), Belgiya (15,7), Yaponiya (14,3), AQSh (13,7), Fransiya (12,1), Shvesariya (11,3), Germaniya (9,1), Isroil (5,2) kabilarda muayyan darajadagi suitsidal xarakatlar tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar har yili o'zgarib turibdi.

Suitsid holatlarini qayd qilib boruvchi dunyodagi eng katta institut Shvesiyada joylashgan bo'lib, uning hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Yevropa davlatlari bu borada peshqadam ekanligini ta'kidlashmoqda.

Dunyo bo'yicha Italiya, Ispaniya, Gresiya, Albaniya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Norvegiya, Irlandiya davlatlarida, shuningdek ko'pchilik Afrika mamlakatlarida suitsidal holatlar kam uchraydi. Bu boradagi eng yaxshi ko'rsatkich esa arab va musulmon mamlakatlaridadir (Saudiya Arabistoni, Eron, Iraq, Bahrayn va h.k.). Ularda bu holat deyarli ko'zga tashlanmaydi.

Ilmiy manbalar tadqiqi shuni ko'rsatadiki, suitsidal xulq-atvor motivatsiyasi muayyan ijtimoiy psixologik omillar bilan determinantlashgan holda shakllanadi va rivojlanadi. Chunonchi A.G. Ambrumova (1981, 1989) e'tirof etganidek, shaxs va uning o'ziga xos shaxslilik xususiyatlari, ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya namoyishi sifatida suitsidal xulq-atvorni anglashga bo'lgan motivlar va ko'rinishlarni namoyon etmoqda. Muayyan ilmiy tadqiqotlarda shaxsning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tabiatiga daxldor bir qator omillar, jumladan; emotsiyal mas'ullikka nisbatan past tolerantlik, qat'iylik, agressivlik, kommunikativ noadekvatlilik, o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholash, shaxsning psixologik muhofazasi, hayot qadrining pasayishi va yo'qolishi, perfektionizm, kognitiv rigidlik, fikrlashning sayozligi va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Yuridik psixologiyada suitsidal xulq-atvorning shaxs determinantlarini o'rganish muammosi, o'z joniga qasd qilganlarga nisbatan, o'limidan keyin o'tkaziladigan psixologik ekspertiza doirasida ko'rib chiqiladi (I.A. Kudryavsev (1988); M.M.Kochenov (1991); V.F.Engalichev (1997); F.S. Safuanov (1998); I.I. Mamaychuk (2002) va b.).

Suitsid yoxud o'z joniga qasd qilish asrlar davomida jiddiy ijtimoiy muammo bo'lib kelgan. XX asr boshida A.F. Koni ta'kidlagandek, "...o'z joniga qasd qilish yakka hodisa bo'imasdan, balki yaxlit ijtimoiy hodisaga aylanib qolib, ushbu vaziyatni chuqur o'rganish va unga qarshi samarali kurash olib borishni talab qilmoqda".

Z.Freyd fikricha, suitsidni insonda ikkita asosiy intilish mavjudligi (hayot instincti va o'lim instincti) haqida tushunchalari asosida tahlil qilish zarur va libido vazifasi, vayron etuvchi instinctni ro'yobga chiqarib, atrof-muhit ob'ektlariga yo'naltirib zararsizlantirishdan iboratdir, yani, "...o'z o'zimizni yo'q qilishimiz uchun qandaydir narsa yoki insonni qirib tashlash kerakdek tuyiladi...".

O'zbekistonda ham suitsidlar darajasi geografik joylashishi bo'yicha farqlanadi. Masalan, G.B. Shoumarov va U.Qodirovlar (2015) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston suitsid kam tarqalgan mamlakatlar qatoriga kirsada, (bu ko'rsatkich har 100 ming aholiga 5,8 ni tashkil etadi) afsuski, respublikamizda so'nggi yillari suitsid bo'yicha ko'rsatkichlar oshib bormoqda. O'z joniga qasd qilish asosida olamdan o'tgan fuqarolar soni viloyatlarda sezilarli darajada ko'paygan.

Qadimgi dunyo halqlari orasida urf-odatga aylangan o'z joniga qasd qilish marosimi (ritual) mavjud bo'lган. Birinchi navbatda, bu holat o'zini ko'ngilli ravishda xudolarga qurbanlik qilish bo'lib hisoblangan.

Qadimgi Xitoy va qadimgi Hindistonda bu holat yaqin davrlarga qadar sodir etilib kelinganligini tarix guvohlaydi.

Or-nomus kodeksi kontekstida erkaklarning o'z joniga qasd qilishlari ko'rinishidagi hulq-atvor ko'rinishlari Qadimgi ahdda bayon etilgan, barcha madaniyatlarda mavjud bo'lган va bugunda ham sodir etilib kelinmoqda. Bunday holatlar, ayniqsa, harbiylar va hokimiyat vakillari orasida keng tarqalgan. Ko'plab harbiy jamiyatlar masalan, vikinglar o'z joniga qasd qilishga hurmat bilan qarashgan.

Yapon madaniyatida o'z joniga qasd qilish muqaddaslik gardishi bilan qamralgan va har doim marosim harakteriga ega bo'lган. Bugun rivojlangan yapon millati orasida suitsidning yangi ko'rinishi paydo bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Yapon yoshlari orasida bugun jamiyatda o'z o'mini topa olmaganligi yoki yaxshi ish joyiga ega bo'lmaslik, moddiy o'zini qoplay olmaslik natijasida o'zini harakatlanib kelayotgan poezd tagiga tashlab o'ldirish holati ko'payib bormoqda. Tadqiqotlarda ishtirok etgan 100 ga yaqin yapon yoshlari bu jarayon eng samarali yo'lligini, ya'ni suitsidentning o'limi ma'lum vaqt boshqalarga zarar keltirishi (ishga kechikib borish, o'lган shaxsni bir muddat o'ylab yurish va b.q.) bu uning yutug'i ekanligini ta'kidlashgan. Qadimda esa Yapon millati zodagonlari (Samuray) o'z sha'nini, or-nomusini saqlash maqsadida o'zlarining qorinlariga qilich tiqib yoki unga yiqilib, o'z jonlariga qasd qilishadi. Bu jarayon yapon xalqlarida **harakiri** deb ataladi.

O'z joniga qasd qilish Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika qabilalari orasida "yomon holat" hisoblangan. Ularning e'tiqodiga ko'ra, suitsidentning o'limidan so'ng zarar keltirishi mumkin bo'lган yovuz kichik ruh paydo bo'lishiga ishonilgan. Shomon madaniyatiga ko'ra, qadimdan va hozirga qadar suitsident o'z qarindosh-urug'larining azoblovchisiga aylanadi, deb ishoniladi.

Qadimgi Yunoniston (Gresiya) qonunlari jinoyatchiga ommaviy qatlni yoki o'z joniga qasd qilish imkoniyatini bergen. Ularning tushunchasiga ko'ra, shaxs tanlash huquqiga egaligi inobatga olingan. Yunon falsafasida o'z joniga qasd qilish muammosi ilk marotaba nazariy asoslanib, ilmiy talqin topgan. Pifagor hayotni Tangri tomondan berilgan in'om sifatida ko'rib, inson unga bo'ysunishi lozim deb uqtirgan. Unga bu kabi xulosaga kelishi uchun sonlar nazariyasi sabab bo'lган. Arastu suitsid holatini davlat maqsadlariga qarshi qaratilgan harakat sifatida baholagan, bu kabi harakat jazolanishi shart, deb hisoblagan. Aflatun qarashlari yuqoridagi ikki nazariyani birlashtirgan.

Qadimgi Rim tarixida ham o'z joniga qasd qilish holatlarini juda ko'plab uchratish mumkin. Katon, Antoniy, Seneka va boshqalar Qadimgi Rim tarixida shbu holatni sodir etishgan. Seneka imperator Neronning buyrug'i bilan oyoq tomirlarini kesib, o'z joniga qasd qilgan. Rim Qonunlari suitsid jarayonini qoralasa-da, biroq chetdan uni rag'batlantirib kelgan.

O'z joniga qasd qilishni IV asrda avliyo Avgustin birinchi bor qoralab chiqqan. U suitsidni diniy ta'limot shaklini buzuvchi qotillik, deb hisoblagan. Avliyo Avgustin suitsidni qoralagan holda to'rt dalil keltirgan:

- Inson aybdor inson huquqiga ega emas (aybi bo‘lmanan holda aybdordek o‘lishi mumkin emas).
- O‘z joniga qasd qiluvchi o‘z jonini olar ekan, u insonni o‘ldiradi.
- Sofdil ruh barcha azob va uqubatlarni yengib o‘tadi.
- O‘z joniga qasd qilgan gunohkorlarning eng yomoni sifatida o‘ladi.

Foma Akvinskiy XIII asrda o‘z joniga qasd qilishni uch postupal asosida qat’iy qoralab, uni quyidagi sabablarga ko‘ra noto‘g‘ri harakat deb hisoblagan. O‘z joniga qasd qilish tabiat qonunining buzilishi bo‘lib, unga ko‘ra har bir tabiiy narsa o‘z mavjudligini saqlashi zarur va o‘zini sevishi lozim. Bu axloq qonunining buzilishidir, chunki bu holat natijasida inson o‘zi bir qismi bo‘lgan jamiyatga ziyon yetkazadi. O‘z joniga qasd qilish Tangri qonunining buzilishi bo‘lib, unga ko‘ra inson bo‘ysunishi lozim va hayotdan mahrum qilish huquqi faqatgina Xudoning ishidir.

O‘rtalarda xristian cherkovlari o‘z joniga qasd qilish holatini qattiq qoralab, ushbu holatga qotillikdan ko‘ra murosasiz munosabatda bo‘lgan. O‘rtalarda Yevropasida o‘z joniga qasd qiluvchilar jinoyatchi hisoblangan. Ularning jasad-lari yo‘llar kesishgan joylarda (chorraha) dafn qilingan. Yevropa uyg‘onish (renessans) davriga kelib, birinchilardan bo‘lib, Angliya va Fransiyada inson va uning huquqlari haqida fikrlar bildirila boshlandi.

XVI-asrda fransuz faylasufi Montel antik davr faylasuflarining suitsid haqidagi fikrlarini qayta jonlantirdi.

F. Volter o‘z joniga qasd qilish muammosiga ratsional yondashuvda bo‘lib, uning namoyon bo‘lishida psixologik tarkibning ahamiyatini qayd etib o‘tdi. J.J. Russo o‘z joniga qasd qilish muammosini romanlashtirdi.

Turli mamlakatlarda o‘z joniga qasd qilganlarga munosabat turlicha bo‘lgan. Qadimgi Afina va Fivada o‘z joniga qasd qiluvchilarining qo‘llari kesib tashlangan. Xristian dini shakllanganidan so‘ng bunga qarshi haqiqiy kurash boshlangan. Angliyada o‘z joniga qasd qiluvchilar (1961-yilgacha o‘z qonunlarida suitsidga doir moddani saqlab kelgan oxirgi mamlakat hisoblanadi) o‘g‘ri va qaroqchilarga tenglashtirilgan, o‘z joniga qasd qilgan odam tirik qolgan taqdirda hukumat bu ishni o‘zi yakunlagan. Daniya o‘z joniga qasd qiluvchi odam tirik qolgan taqdirda u derazadan tashqariga olib chiqilib, xalq orasida yoqilgan. Rossiyada o‘z joniga qasd qiluvchilar shahar bo‘ylab ot dumiga bog‘langan holda sudralgan. Eskimoslarda qariyalarning tundraga ketib, o‘sha yerda muzlab o‘lishi an‘anaga aylangan. Suitsid holatiga har bir din o‘zicha yondashadi. Masalan, Hindistonda to XIX-asr oxiriga qadar raqifa eri o‘lganidan so‘ng o‘zini kuydirishi shart (sati) yoki arab ertaklari bo‘lmish “Ming bir kecha”dagi Sinbad sarguzashtlarida rafiqalar eridan oldin o‘lsa, ikkalasini tiriklayin g‘orga tashlab yuborishar ekan.

Agar diniy nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak, hech bir din o‘zini o‘zi o‘ldirishni oqlamaydi. Nasroniylik diniga binoan, inson o‘z qilmishlari uchun ruhiy azob chekmasligi kerakligi, cherkovga borishi va diniy xodim oldida qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi uqtiriladi (ispoved). Agar inson qilgan qilmishlari uchun uzr so‘rasa, ruhiyati cho‘kmaydi va o‘z joniga qasd qilmaydi, deb hisoblashadi. Ota-bobolarimizdan qolgan Islom dinida o‘zini o‘zi o‘ldirish qattiq qoranlandi. **“Kimki shu dunyoda o‘zini nima bilan o‘ldirsa, Qiyomatda azobi o‘sha bilan bo‘ladi”**, deyiladi hadisi sharifda. O‘zini-o‘zi o‘ldirish shariatda ulkan gunoh hisoblanadi.

**Xulosalar:** Dunyo statistikasiga ko‘ra, nasroniy va boshqa dinlarga e‘tiqod qiluvchi xalqlar orasida musulmon diniga e‘tiqod qiluvchi xalqlarga nisbatan o‘z joniga qasd qilish holati anchayin yuqori hisoblanadi.

Shaharda yashovchi aholi qishloq aholisiga ko‘ra suitsid holatini ko‘proq sodir etishi kuzatiladi. Bunga shahardagi odamning o‘zini yolg‘iz his etishi, hech kimga keraksizdek bo‘lib qolishi sababdir. Turmush darajasi bilan o‘z joniga qasd qilganlar orasida hech qanday bog‘liqlik aniqlanmagan. Masalan, Yevropaning rivojlangan va boy mamlakatlaridan biri Shvesiya bir necha yildirki, suitsid sodir etish bo‘yicha dunyo reytingini boshqarib kelmoqda.

Xalqlar orasida suitsidning sabablarini bog‘lab beruvchi turli qarashlar mavjud:

**Suitsidni ruhiy kasal odam amalga oshiradi.** Lekin tadqiqotlar ko‘rsatishicha, o‘z joniga qasd qilganlarning 80-85 foizi sog‘lom kishilar.

**Suitsidning oldini olish mumkin emas.** Biroq inqiroz davri vaqtinchalik holatdir. Bu vaqtida atrofdagilarning yordami, e'tibori va qo'llab-quvvatlashi zarur. O'z joniga qasd qilishga moyil insonlar bor, lekin hamma narsa vaziyatga va uning shaxsiy baholashiga bog'liq.

**Inson suitsid sodir etishdan oldin atrofidagilarga bu haqida aytadi.** Afsuski, ko'pincha, atrofidagilar buni hazil deb hisoblashadi. Affektiv holatlarni hisobga olmaganda, ko'pincha, suitsidentlar bu haqida atrofidagilarga aytishgan.

**Suitsid haqidagi fikr oldindan tayyorgarliksiz kutilmaganda to'satdan keladi.** Lekin, tahlil ko'rsatishicha, inqiroz davri bir hafta, bir oy va yillab bo'lishi mumkin.

**Agar inson o'z joniga qasd qilishga harakat qilib ko'rgan bo'lsa, buni ikkinchi bor takrorlamaydi.** Biroq qayta takrorlash xavfi juda yuqori bo'ladi, ayniqsa, birinchi va ikkinchi oylarda.

**O'z joniga qasd qilish nasldan-naslga o'tadi. Biroq bu – isbotlanmagan fikr.**

Agar bir ish bilan muntazam band bo'linsa, o'z joniga qasd qilish fikri hech qachon tug'ilmaydi. Bu noto'g'ri.

**Kuchli shaxslargina o'z joniga qasd qila oladi. Lekin, zaif va kuchsiz shaxslar hayot qiyinchiliklaridan qo'rqedi (*Yapon madaniyati*).**

Shu bilan birga respublikaning barcha viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston bo'yicha joylarga maxsus yuborilgan mutaxassis psixolog va yuristlar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarning tahlili quyidagi xulosalar qilishga asos bo'lmoqda.

1. Yildan yilga deyarli barcha hududlardagi suitsidlar soni oshib, o'z joniga qasd qilayotganlar yosh jihatdan "yasharib" borayapti.

2. Suitsidlarning asosiy qismini 18-40 yoshli insonlar sodir qilishgan.

3. Suitsidning o'sishi erkaklarga nisbatan ayollar orasida ko'proq ifodalananmoqda.

4. Ayollarda o'lim bilan tugaydigan suitsidlar soni keskin ortib bormoqda.

5. Suitsid turlari ichida o'zini osish hollari ko'paymoqda.

6. Suitsidni amalga oshirganlarning milliy tarkibi o'rganilganda o'z joniga qasd qiluvchilarning 90-95% o'zbeklar ekani ma'lum bo'ldi.

7. Oilalilik statusi (maqomi) bo'yicha suitsidlarning asosiy qismini oilali va oila qurmaganlar tashkil qiladi.

8. Sabablar ichida (ruhiy kasallarni hisoblamaganda) yetakchi, ya'ni birinchi o'rinni oilaviy kelishmovchiliklar, nizolar egallaydi.

Mazkur sabablar chuqurroq psixologik tahlil qilinganda, shaxsning oilada, mehnat jamoasida yetarli qadrlanmaganligi; qadr-qimmati, hurmat-obro'yi, g'ururi surunkali kamsitilishi; insonning muntazam ravishda tanqid va haqoratga duchor bo'lishi; erkaklarning gastarbayterlik, migratsiya, oilasi bilan oylab, ba'zan yillab yashamasligi oqibatida ayollar ma'lum qismining psixofiziologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlardan qiyinchilikni his qilishi; kelajakka ishonchning pasayishi; hayotdan zerikish, charchash va to'yinish; ruhiy zo'riqish va tushkunlik (depressiya)ning shaxsda frustratsiya holatini yuzaga keltirishi suitsidga olib kelayotganligi aniqlandi. Ayrim hududlarda hamma qatorida bo'lishga intilish asosida minglab odamga osh berish, to'y berishlar ortidagi sarf-xarajatlar; to'ylarda o'zaro insoniy muloqotning kamayib, uning o'rniga rasmiylikning ustuvorlik qilayotgani (masalan, to'yanani berib (qarzidan qutulib) yarim, bir soat o'tmasdan ketib qolish natijasida to'y yarmida yaqin qarindoshlardan tashqari odamlarning deyarli qolmasligi), odamlarda muloqot, fikr almashish, dardlashish, bir-birlariga psixoterapevtik ta'sir o'tkazish singari jihatlarning keskin kamayib ketayotganligi ham suitsidning yuzaga kelishiga omil vazifasini o'taydi.

Ko'rinish turibdiki, odamlarning suitsid haqidagi fikrlari doim ham to'g'ri emas. Bu esa aholi orasida suitsidning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yanada qiyinlashtiradi. Shu sababli suitsidning oldini olishda ta'lim-tarbiya jarayonidan unumli foydalanish zarur.

Doim atrofimizda biz bilan birga bo'lgan yaqinlarimizga e'tiborli bo'lishimiz, ularni tinglay olishimiz lozim. Shundagina bu ruhiy illatning oldini olgan va, eng asosiysi, kishilarning ruhan ezilishining oldini olishga erishishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. З.С.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмиirlарда кузатиладиган психологик ўзгаришларнинг ёш билан боғлик хусусиятлари (Вояга етмаганларга ижтимоий ёрдам кўrsatiш маркази тарбияланувчилари мисолида). 2022-й. Pedagogik mahorat 6 (1), 72-75
2. F.A.Ismatova., Z.S.Elov. Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompitentsiyasi tuzilishini baholasning o'ziga xos xususiyatlari. 2022. ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР 1 (12/2), 241-245
3. Z.S.Elov. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida suisidal xulq motivasiyasi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik sabablari. 2022 Лучший инноватор в области науки 1 (1), 583-591
4. З.Элов. Рухий-жинсий бузилишлар шахса ижтимоий психологик муаммо сифатида. 2023. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) (43)
5. Z.S.Elov. O'z joniga qasd qilish deviant xulq-atvorli o'smirlarda psixologik muammo sifatida. 2023. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 40 (40)